

## **KASBIY TA`LIM TASHKILOTLARIDA TASHKIL ETILADIGAN O`QUV-TARBIYAVIY JARAYONLAR**

*Dolimova Durdona Mahmudjon qizi*

*Andijon shahar 3-son politexnikumi  
matematika fani o'qituvchisi.*

*Ixvoldinova Sayyora Qobulovna*

*Andijon shahar 3- politexnikumi  
tarbiya fani o'qtuvchisi.*

*Mahmudova Hilola Abdumannon qizi*

*Andijon shahar 3-son politexnikumi  
fizika fani o'qituvchisi.*

**Annotatsiya:** O`quv tarbiyaviy jarayon tushunchasi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinsada, mazkur jarayon ta'lism-tarbiya jarayoni sifatida shaxsning kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o'rganilishi va o'zlas htirilishi hamda ularning o'rganganlarini amaliyotga tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beradi. Ushbu maqolada kasbiy ta`lim muassasalarida tashkil etiladigan o`quv – tarbiyaviy jarayonlar haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** o`quv tarbiya, o`rta ta`lim, kasbiy ta`lim, muassasa, kadrlar tayyorlash , tadqiqot, kommunikativlik, pedagogik jarayon.

### **KIRISH**

Kadrlar tayyorlash sohasidagi davlat siyosati insonni intellektual va ma'nnaviy-axloqiy jihatdan tarbiyalash bilan uzviy bog'liq bo'lgan uzluksiz ta'lism tizimi orqali har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishni nazarda tutgan holda ta'lism oluvchilarda bilim olishga va yangiliklarni puxta o'zlashtirishga ehtiyojni, asosiy o'quv- ilmiy va umummadaniy bilimlarni, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'nnaviy-axloqiy fazilatlarni, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish ko'nikmalarini shakllantirishni uzluksiz ta'lism jarayonlarining asosiy vazifalari sifatida belgilab berdi.

Uzluksiz ta'lism tizimida ayniqsa, kasbiy ta`lim muassasalarida pedagogik jarayonlarni tashkil etish va boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi vazifalarni amalga oshirish, ya'ni ta'lism- tarbiya jarayonlari samaradorligini ta'minlash pedagogik jarayonlar ishtirokchilari hisoblangan ta'lism muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar va boshqa mutaxassis xodimlarning faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish zaruriyatini belgilaydi. Uzluksiz ta'lism tizimida. ta'lism

jarayoni ishtirokchilari ehtiyojlari, shuningdek, fan, ta'lim, ishlab chiqarish ehtiyojlaridan kelib chiqib, raqobatbardosh bitiruvchilar tayyorlashda uzlusiz ta'lim tizimining asosiy komponentlari hisoblangan maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus kasbiy ta'limi, oliy ta'lim, oliy ta'limdan keyingi ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim hamda qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining integrativ tabiatiga mos ta'lim jarayonlari samaradorligini oshiruvchi texnologiyalarni tanlash, hamda pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolarni o'rganish va ularni bartaraf etish mexanizmlarini ishlab chiqish bugungi kunning eng asosiy talablaridan bin hisoblanadi.

### **MUHOKAMA VA NATIJALAR**

Uzlusiz ta'lim tizimida ayniqla, kasbiy ta'limda tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarda vujudga kelayotgan muammolarni bartaraf etishning eng asosiy omillaridan biri bo'lgan pedagogik jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini ta'minlashda mazkur jarayon ishtirokchilarining ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko'maklashuvchi jarayonlar hisoblangan ta'lim, mustaqil ta'lim, tarbiya, o'zini-o'zi tarbiya va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarini tashkil etish, boshqarish, sifat va samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi innovatsion yondashuvlarni joriy etish zarur.

O`quv tarbiyaviy jarayon tushunchasi ko'pchilik tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinsada, mazkur jarayon ta'lim-tarbiya jarayoni sifatida shaxsning kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o'rganilishi va o'zlas htirilishi hamda ularning o'rganganlarini amaliyatga tatbiq etish uchun shart-sharoitlar yaratib beradi.

Tadqiqotchilar V.A.Slastenin va A.I.Mishenkolarning ta'kidlashicha, o`quv tarbiya jarayon - bu ta'lim-tarbiyaviy maqsadlarga yo'naltirilgan va maxsus tashkil etilgan ustozlar va tarbiyalanuvchilarmn o'zaro tasir jarayonidir. Ustozlar va tarbiyalanuvchilar subyekt sifatida o`quv tarbiya jarayonning asosiy komponentlari hisoblanadi.

P.I.Obrazsov va V.M.Kosuxinlar o`quv tarbiya jarayonning o'ziga xos xususiyatlaridan biri sifatida uning yaxlitligini ajratib ko'rsatgan holda, quydagilarni o`quv tarbiya jarayon komponentlari sifatida keltiradi: ta'lim mazmuni va o`quv materiallarini loyihalashtirish va o'zlashtirish jarayonlari; ta'lim mazmunini o'quvchilar tomonidan o'zlashtirilishni ta'minlash maqsadida tashkil etiladigan ta'lim jarayoni; o'qituvchi va o`quvchilarning o'zaro ta'siri natijasida vujudga keluvchi rivojlanish jarayoni; o'quvchi va o'qituvchilarning shaxsiy munosabatlar darajasidagi o'zaro ta'sir jarayoni (norasmiy muloqot jarayoni); ta'lim mazmunini o'quvchilar tomonidan bevosita o'qituvchining ishtirokisiz o'zlashtirish jarayoni (mustaqil ta'lim va o zini-o'zi tarbiya).

Ushbu tadqiqotchilar ta'lim, rivojlanish, muloqot, mustaqil ta'lim va o'zini-o'zi tarbiya jarayonlarini yaxlit o`quv tarbiya iarayonning tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko`rsatadilar.

Kasbiy ta'lim tizimida tashkil etiluvchi o`quv tarbiya jarayonda subyektlarning ichki imkoniyatlarini harakatga keltiruvchi, tushunchalarini mustaqil ravishda rivojlantirishga ko'maklashuvchi, o`quv tarbiyaning "tarbiya"- "o'zini-o'zi tarbiya", "ma'lumot"- "mustaqil ma'lumot", "ta'lim"- "mustaqil ta'lim", "rivojlanish" va "tarbiyaviy munosabatlar" tushunchalari bir-birini to'ldiruvchi hamda bir-birini ta'minlovchisi sifatida shaxsning rivojlanishi hamda shaxsiy qobiliyatlarini shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shunday ekan, shaxsning rivojlanishida uning mustaqil faoliyati, ya'ni mustaqil ta'lim va mustaqil ma'lumotlar olishi hamda o'zini-o'zi tarbiyalashi muhim ahamiyatga ega ekanligini hamda kasbiy ta'lim tizimining o`quv tarbiya jarayonlarida ta'lim oluvchi shaxsini rivojlantirishning asosi sifatida ta'lim - mustaqil ta'lim. tarbiya - o'zini-o'zi tarbiya, ma'lumot - mustaqil ma'lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosabatlar jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda ularni yaxlit o`quv tarbiya jarayonning tarkibiy qismlari sifatida ajratib ko`rsatish mumkin.

Kasbiy ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan o`quv tarbiya jarayonlarning asosiy komponenti sifatida ta'lim oluvchi shaxsining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi ta'lim - mustaqil ta'lim, tarbiya - o'zini-o'zi tarbiya, ma'lumot - mustaqil ma'lumot, rivojlanish va tarbiyaviy munosanatlar jarayonlari bilan bir qatorda, oila, manalla, ta'lim muassasasi va tengdoshlari o'rtasida vujudga keluvchi o'zaro ta'sir jarayonini ham inobatga olish zarur.

O'zaro ta'sir - bu inson faolligining ko'rinishi sifatida, muloqotning interfaol shakli va individ faoliyatining ma'lum bir turi sifatida mustaqil ahamiyat kasb etuvchi jarayon. O'zaro ta'sir jarayonida muloqot vuiudga keladi va bunda inson o'zini - o'zi anglaydi, o'z ehtiyojini, shaxsiy hayotiy tushunchalarini, faolligini namoyon etadi.

Buning uchun inson o'zining qaysi tizimga va qaysi jamiyatga xosligini anglashi zarur.

O'zaro ta'sir jarayonida ishtirok etayotgan inson nafaqat o'zini va shaxsiy xususiyatlarini, balki aniq holatni, vaziyatni ham o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi, bunda o'zaro ta'sir ko'rsatuvchi subyektlarning rivojianishi amalga oshadi, shuningdek, o'zaro ta'sir jarayoni ham rivojlanadi.

A.A.Bodalyovning fikricha, insonlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir inson psixologiyasi va shaxsiy xususiyatlarini rivojlanishining eng asosiy omili bo'lib, mazkur iarayon ishtirokchilarining o'zaro teng harakatlari shaxslararo aloqalarning vujudga kelish sharti hisoblanadi.

Mening fikrimcha ta'lif tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan o'quv tarbiya jarayonlarning komponenti sifatida quyidagilarni inobatga olish zarur:

- subyektning faolligi va tashabbuskorligining rivojlani shi;
- shaxsning psixologik xususiyatlarining o'zgarishi;
- ma'naviy va madaniy tushunchalarning rivojlanishi;
- o'zini-o'zi anglashi va o'zini-o'zi baholash ko'nikmalarining rivojlanishi;
- kasbiy kompetentlilik darajasini ortishi;
- hamkorlikdagi faoliyatni vujudga kelishi va unda axborotlar almashinuv natijasida kasbiy faoliyatga psixologik moslashuvni vujudga kelishi.

Yuqorida keltirilgan fikrlarga asoslangan holda ta'lif tizimida, ta'lif oluvchilar uchun tashkil etiladigan amaliy mashg'ulot, to'garak mashg'ulotlari, ekskursiya, davra suhbat, uchrashuvlar, fanlar bo'yicha tashkil etiladigan musobaqa va tanlovlari, san'at festivallari, konferensiya va boshqa turli yo'nalishlardagi tadbirlar (pedagogik tahlil, o'zaro dars kuzatish, ustoz-shogird tizini, maslahatlar)ni, o'quvchi, talaba va o'qituvchilarning o'zлari tomonidan amalga oshiriladigan mustaqil ta'lif, o'zini-o'zi tarbiya, mustaqil ma'lumot, mustaqil ishlarni shuningdek shaxslararo munosabatlar jarayonida bevosita vujudga keluvchi tarbiyaviy munosabatlar jarayonini hamda pedagogik tajriba sinov va pedagogik amaliyot jarayonlarini ta'lif tizimida tashkil etiladigan o'quv tarbiya jarayonlar deb aytishimiz mumkin.

Mazkur jarayonlarning maqsadi, yo'nalishi, mazmuni mohiyati va ahamiyatiga e'tibor qaratadigan bo'lsak ularning o'zaro aloqadorligi va bog'liqligini, ya'ni ularda ta'lif tizimiga xos xususiyatlar mavjudligini ko'rishimiz mumkin, chunki o'quv tarbiya jarayonlar deb atalayotgan soddadan murakkabga qarab davom etayotgan jarayonlarning ixtiyoriy birining o'zgarishi ikkinchisi, uchinchisi va boshqalarining o'zgarishiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Tadqiqotlarda "tizim" tushunchasi juda keng qo'llaniladi, masalan, ta'lif tizimi, tarbiya tizimi, ta'lif- tarbiya jarayonini tashkil etish shakllari va metodlari tizimi va hokazo.

Tadqiqotchi M.U.Dexqanovaning ta'kidlashicha, tizim - ma'lum bir ketma-ketlikda tartiblangan, nisbatan mustaqil mantiqan o'zaro uzviy bog'langan va birgalikda umumi funksiyaviy bajaruvchi elementlar majmuidir.

N.A.Muslimovning ta'kidlashicha, tizimlilik butun olamning umumiy xususiyatidir. Tabiat, jamiyat, inson faoliyati va fikrlashidagi tizimlilik bunga misol bo'la oladi. Ushbu umumiy xususiyatdan kelib chiqib. "tizimlilik" tushunchasini jarayonlar va borliqdagi hodisalarining tizim hosil qila ol ishi, tizimning mavjudligi, moddiy dunyoning hamda uni bilish shakllarining va demak, pedagogik faoliyatning ham tizimbli qurilishga ega ekanligi to'g'risida xulosa chiqarish mumkin.

N V.Kuzminaning ta'kidlashicha, ijtimoiy tizimning turlaridan biri hisoblangan o'quv tarbiya tizim - insonlarga va yosh avlodga ta'lif va tarbiya berish, ta'lif

jarayonini tashkil etish maqsadlariga xizmat qiluvchi turli strukturaviy va funksional bog'liq bo'lgan komponentlar majmuidan iboratdir.

Bizning fikrimizcha, o`quv tarbiya tizim umumiy maqsadlar yo`nalishida, funksional vazifalarni amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta`sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarga ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir.

Shunday qilib, o`quv tarbiya tizim ta'lim muassasasining maqsadi, vazifasi, ta'lim muassasasi tomonidan tanlangan model, strategiyalari orqali tavsiflanadi. O`quv tarbiya tizim belgilangan maqsad yo`nalishida, umumiy o`rtalim tizimi subyektlari faoliyatini muvofiqlashtirish, funksional vazifalarini amalga oshirish va boshqarishda tashqi muhit bilan o'zaro ta`sir ko'rsatuvchi, alohida xususiyatlarqa ega bo'lgan o'zaro bog'liq qismlarning yaxlit holda vujudga kelishidir.

Demak, kasbiy ta'lim tizimidagi o`quv tarbiya jarayonlarni o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini inobatga olgan holda yaxlit o`quv tarbiyaviy tizim deb hisoblasak, ularni tashkil etish va boshqarish ham tizimli xususiyatga ega bo'lishi kerak. O`quv tarbiya tizimning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishga tizimli yondashuvning mazmun va mohiyati quyidagi tamoyillar asosida ko'rsatishimiz mumkin.

1.O'zaro bog'liqlik – ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan o`quv tarbiya jarayonlar alohida bir tizim sifatida va yuqori tartibli yaxlit o`quv tarbiya tizimning tashkil etuvchi komponenti sifatida mavjudligi,

2.Kommunikativlik – o`quv tarbiya tizimning tashqi muhit va boshqa tizimlar bilan o'zaro ta`sir etish xususiyatlariga ega ekanligi.

Kasbiy ta'lim tizimida o`quv tarbiya jarayonlarni tashkil etish va boshqarish yo`nalishidagi muammolarning ko'pqirraliligi va murakkabligi, nafaqat o`quv tarbiya jarayonlarni tashkil etish va boshqarishni sifat jihatdan o'zgartirishni nazarda tutadi, balki uning mazmunini takomillashtirish zaruriyatini ham belgilaydi.

Kasbiy ta'lim tizimi oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishga qaratilgan, oldindan loyihalashtirilgan hamda mavjud imkoniyatlar va ilmiy-pedagogik salohiyat darajasida tashkil etiladigan o`quv tarbiya jarayonlar asosiy (ta'lim- tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Kasbiy ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan o`quv tarbiya jarayonlarni rivojlantirish asosiy (talim -tarbiyaviy) va yordamchi (ta'minlovchi va shart-sharoitlar yaratuvchi) jarayonlar ishtirokchilarning faoliyatları bilan bog'liq holda, ilmiy-pedagogik salohiyatni boyitish, imkoniyatlarni kengaytirish asosida yanada yangi sifatlarga, yuqori va samarali natijalarga erishishga yo'naltiri lgan va uning samaradorligini oshirishga qaratilgan bo'lib, ulardan foydalanishda samaradorlikka erishish va rivojlantirish uchun odatda belgilangan mezonlarni

almashtirish, asosiy va yordamchi jarayonlarni yoki mazkur jarayonlar ishtirokchilarining faoliyatini takomillashtirish zarur bo'ladi.

Kasbiy ta'lim tizimida o`quv tarbiya jarayonlar bir butun organizm sifatida ichki o'zgarishlarga asosan rivojlanadi va o'zaro aloqalar tizimi barqarorlashadi. Turli xil muammolarni hal etish zamonaviy usullar yordamida maqsadga erishishdagi vazifalar amalga oshiriladi, natijalar zamon talablariga moslashadi va o`quv tarbiya tizim samaradorligi ta'minlanadi.

### **XULOSA**

Kasbiy ta'lim tizimida tashkil etiladigan va boshqariladigan o`quv tarbiya jarayonlarning umumiy modelini o'zgartirishda o'qituvchilar va ta'lim oluvchilarning imkoniyatlari, boshlang'ich tushunchalari va ishonchlarga asoslanish kerak, chunki yangilangan model zamonaviy talablar darajasida ta'lim oluvchilarning o'zgaruvchan ta'lim-tarbiyaviy, ma'naviy ehtiyojlarini qondira olishi, ilg'or pedagogik tajribalarni qo'llash hamda ularning ijodiy salohiyatini rivojlantirishga zaruriy shart-sharoitlarni yaratib berishi zarur.

Kasbiy ta'lim tizimidagi o`quv tarbiya jarayonlarning umumiy modelini o'zgartirish asosida mazkur jarayon ishtirokchilari uchun zaruriy shart-sharoitlarni yaratish, ularning salohiyatini rivojlantirish va o`quv tarbiya jarayonda subyektiv munosabatlarini qaror toptirish uchun quyidagi asosiy tamoyillarni inobatga olish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Абульханова К.А. Стратегия жизни. –М.: Мисль, 1991.- 299 с.
2. Azizzxo'jaeva N.N. O'qituvchl mutaxassisligiga tayyorlash texnologiyasi - Toshkent: TDPU, 2000. - 52 b.
3. Андреева Г.М. Социальная психология. - М. МГУ, 1988. - 415 с.
4. Ahlidinov R.Sh., Nosirova F.A., Rajabova M.R- Maktab boshqaruvida ichki nazorat. - Toshkent: Sharq, 1996. - 15-17-b.
5. Ahlidinov R.Sh. O'zbekiston Respublikasida maktab ta'limi tizimini boshqarish xususiyatlari (nazariy-metodologik jihatlar). - Toshkent: O'zPFITI, 1997 -25-26-b.
6. Березуцкая Ю.П. Подготовка организаторов образования к анализу управленческой деятельности на основе системы мотивационного программно-целевого управления.: Автореф. дис. ... канд. пед. наук. - Барнаул, 1999.- 18 с.